

Katta yoshda chet tili o'rganishda rol o'ynaydigan muhim omillar

*Shimoliy-G'arbiy xarbiy okrugi serjantlar tayyorlash
maktabi nemis tili o'qituvchisi Atamuratova Sevara
Zokirjonovna*

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirishda "Ta'lim to'g'risida"gi qonun hamda Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi doirasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etayotir. Prezidentimiz Islom Karimovning 2012 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ham respublikamizda ta'lim sohasidagi islohotlarning izchil davom etayotganidan dalolat.

Davlatimizda chet tillarini o'rganish uchun keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Zero, til muloqot vositasidir. Chet tilini o'rganish kishilik jamiyatida juda muhim sohalardan biridir. Chet tilini o'rganish shaxsning rivojlanishiga, miyaning muntazam charxlanib borishiga yordam beradi. Bundan tashqari biror bir chet tilini o'rganish insonga jamiyatda o'z o'rnini topishida ya'ni, ishlash va o'qish uchun keng yo'l ochadi. Chet tilini o'rganishning ikkita turi farqlanadi: tabiiy muhitda, ya'ni, oilada, jamoatchilik orasida yoki maxsus guruhlarda, ya'ni sistematik tarzda aniq reja asosida tuzilgan darslarda chet tilini egallash mumkin. Katta yoshda chet tilini tabiiy muhitda kundalik muloqot orqali o'rganish ko'pchilik hollarda grammatik jihatdan noto'g'ri gapirishga olib keladi. Lekin tuzilgan gaplarning mazmun va ma'nosi saqlangan holda shaxsning fikri ifoda etiladi. ya'ni katta yoshda tabiiy muhitda til o'rganuvchilar o'zlarining fikrini mazmunan ifodalashadi va bunda tilning grammatik strukturasi unchalik e'tibor qaratilmaydi. Tabiiyki bunday vaziyatlarda suhbatdosh har doim gapiruvchining xatolarini tuzatavermaydi. Chunki suhbatda asosan fikr va mazmun rol o'ynaydi. Shundan kelib chiqqan holda "qotish" sodir bo'ladi. Tilning ayrim xususiyatlari inson xotirasida shundayligicha, ya'ni xato shaklda "qotib" saqlanib qoladi va qo'llaniladi. Katta yoshda til o'rganishda turli omillar muhim rol o'ynaydi. Bular shaxsning yoshi, qobiliyati, atrof-muhit, istak va maqsad, ona tilini bilish darajasi muhim omillardan hisoblanadi. Insonning yoshi chet tilini o'rganishda juda muhim ahamiyatga ega omillardan biridir.

Olimlarning fikricha, ma'lum bir yoshdan so'ng inson xotirasi va boshqa sezgi organlarining faoliyatlari sustlashadi. Ayniqsa chet tili fonetikasini o'rganish, to'g'ri va to'liq talaffuz qilishni o'zlashtirish qiyin kechadi. Amerikalik olim Nyufeldning o'z tadqiqotlariga tayanib ta'kidlashicha, katta yoshda ham chet tilini mukammal ya'ni to'g'ri talaffuz qilib o'rganishi mumkin. Bunga inson miyasining plastikasi va hadsiz sezuvchan qobiqlari imkon yaratadi. Bundan tashqari chet tilini morfologik va sintaktik jihatdan mukammal o'zlashtirish ham uzoq vaqt davom etadi. Lekin bu katta yoshda til o'rganib bo'lmaydi,- degan xulosani bermaydi. Chunki katta yoshdagilar chet tili o'rganishni o'z hayotiy tajribalariga ega bo'lgan holda va har bir vaziyatni tushunib tahlil qilish kabi imkoniyatlaridan foydalangan

holda osonlashtirishlari va tezlashtirishlari mumkin. Muhim omillardan yana biri bu til o'rganayotgan shaxsning istak va maqsadidir. Motivatsiya ya'ni istak va hoxish ikki turga bo'linadi: instrumental, ya'ni biron bir maqsadni ko'zlagan motivatsiya va integrativ, yani faqat tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati va xayotiga qiziqishdan kelib chiqqan motivatsiya.

Nemis olimi Apeltauerning fikricha chet tili o'rganishga bo'lgan hohishning turi emas balki hoxishning kuchi muhimroq, chunki bunday kuch til o'rganish jarayonidagi barcha muammolarni engib o'tadi. Chet tilini o'rganishda atrof-muhitning ham roli katta. Har qanday til tabiiy tarzda, ya'ni jamiyatda o'zlashitiriladi va bu jarayon fonetik va grammatik jihatdan mukammal bo'lmasa ham tez va oson kechadi. Shuningdek, til o'rganish uchun shaxsning qobiliyati muhim. Biz xalq orasida "juda qobiliyatli, tilni tez o'rganadi" degan gaplarni ko'p eshitamiz. Ammo Nyufeldning fikricha, hech qanday "maxsus qobiliyat" yo'q, chunki har bir insonda muhim elementar kommunikativ qobiliyat mavjud. SHu sababdan chet tilini o'rganish ko'proq aql va zakovatga bog'liq. O'z navbatida til o'rganish uchun mavjud zaruriy ehtiyoj bu jarayonning tezlashuviga turtki bo'ladi.

Chet tilini mukammal o'rganish uchun shaxs o'z ona tilini yaxshi bilishi lozim. Agar til o'rganayotgan shaxs o'z ona tilini yaxshi egallagan bo'lsa, boshqa bir chet tilini o'rganishda unchalik qiynalmaydi, chunki bunda ikki tilning morfologik va sintaktik jihatlari bir-biri bilan qiyoslab o'rganiladi. Ammo bu jarayonda ham ayrim muammolar yuzaga kelishi mumkin. Chet tilini o'rganayotgan shaxs bevosita ona tili xususiyatlarini o'rganayotgan tiliga ko'chiradi. Bu "ko'chirish" bir biriga yaqin tillarda juda katta qo'pol xatolarga olib kelmaydi, ammo tipologik strukturasi umuman boshqa bo'lgan tillarda bunday xatolar yaqqol ko'zga tashlanadi.

Masalan:

Nemis tilida: Meine Tochter geht in die Schule. (ega-kesim-tushum kelishigidagi to'lduruvchi).

Rus tilida: Moya doch idyot v shkolu (ega-kesim-tushum kelishigidagi to'lduruvchi).

Turk tilida: (Benim) kizim okula gidiyor (ega-jo'nalish kelishigi- kesim).

O'zbek tilida: Qizim maktabga ketyapti (ega-jo'nalish kelishigi- kesim).

Bu erda gap tuzilishida so'zlarning o'rni va kelishiklarning o'zgarishini ko'rish mumkin. Demak o'z ona tilini bilish ham chet tilini o'rganishda muhim bo'lib, o'rganish jarayonini engillashtirishi mumkin.

Yuqoridagi nazariy fikrlarni amaliyotda tekshirib ko'rish maqsadida so'rovnoma shaklida kichik bir tadqiqot o'tkazildi. Tadqiqotga serjantlar tayyorlash maktabimiz kursantlari jalb qilindi. So'rovnoma intervyu tarzida bo'lib quyidagi savollar bilan murojaat etildi:

1. Sizningcha chet tilini o‘rganishda qanday omillar muhim rol o‘ynaydi? (Masalan bular: til o‘rganayotgan shaxsning yoshi, qobiliyati, atrof-muhit, ona tilini bilish darajasi va boshqalar).

2. Ayollar va erkaklar chet tillarini o‘rganishda bir birlaridan farq qiladilarmi?

3. “Til o‘rganish qobiliyati” ga ishonasizmi?

So‘rovnoma natijalarini tahlil qilish uchun Lamnek tavsiya qilgan jadval usulidan foydalanildi. Quyidagi jadvalda kursantlarning fikrlari va suhbatda tilga olingan mavzular ham keltiriladi.

Jadval 1. Chet tilini o‘rganishdagi muhim omillar.

Suhbat davomidagi mavzular	Intervyu bergan qatnashuvchilar						
	1	2	3	4	5	6	7
Katta yoshda chet tili o‘rganishda muhim sanaladigan omillar							
Shaxsning yoshi	X	X	X	X		X	X
Atrof-muhit		X	X		X	X	X
Motivatsiya (istak)	X	X	X	X	X	X	X
Biror tilni o‘rganshdagi tajriba					X	X	X
Til o‘rganishdagi kayfiyat	X				X	X	
Til o‘rganishdagi g‘ayrat	X	X					
Erishiladigan maqsad			X	X			
Til o‘rganishga ajratilgan vaqt	X					X	
Til o‘rganishda jinsiy farq bormi? (ayol va erkak)							
Ha, farq bor			X				
Hech qanday farq yo‘q	X	X			X	X	
Bilmayman							X
„Maxsus til o‘rganish qobiliyati“ bor narsami?							
Ha, ba’zi insonlar juda qobiliyatli va chet tilini tez o‘zlashtiradilar			X		X	X	X
Har bir inson biror bir chet tilini o‘rganishi mumkin.	X	X			X		

Jadval 2. Yuqoridagi omillarning muhimlik darajasi

Omillar	Muhimlik darajasi		
	juda muhim	muhim	muhim emas
Shaxsning yoshi	+	+++++	+
Atrof-muhit	+	+++	+
Motivatsiya (istak, hoxish, maqsad)	++	+++++	
Ona tilini bilish	++	+	+++++
Maxsus qobiliyat		+	

Intervyu natijalarini tahlil qilish davomida shu narsa ayon bo'ldiki, yuqorida tilga olingan omillarning har biri chet tilini o'rganishda alohida ahamiyatga ega. Eng muhim omil sifatida til o'rganayotgan shaxsning yoshi keltirilgan. Chunki shaxsning yoshi ulg'ayib borishi bilan uning psixologik va fiziologik holati ham o'zgaradi va bu chet tili o'rganishga juda katta ta'sir qiladi. Undan so'nggi o'rinda turadigan omillar motivatsiya va atrof-muhit omilidir. Bunga izoh sifatida insonning maqsadi va hoxishi bo'lsa, uni amalga oshirish uchun har qanday qiyinchiliklarni engib o'tishga tayyor ekanligi bildirildi. Bu jarayonda tabiiyki atrof-muhitning ham ta'siri bor, chunki o'rganilayotgan tilni atrofda, ya'ni, jamiyatda qo'llash imkoniyatini oshiradi. So'rovnoma asosan ona tilini bilish va maxsus qobiliyat deyarli ahamiyatga ega emas. Shuningdek, til o'rganish jarayonida jins rol o'ynamaydi. Bu o'rinda shaxsning til o'rganish istagi muhimdir. Biroq bu so'rovnoma faqat o'tkazilgan guruh uchun ahamiyatga ega. Aslida chet tilini o'rganish uchun yuqorida sanab o'tilgan omillar talab etilishi tabiiy. Bu esa shaxsning tilni mukammal o'rganishga zamin yaratadi. Ushbu maqolada katta yoshda chet tili o'rganishda muhim rol oynaydigan ba'zi omillar tilga olindi va ularning nazariyasi kichik amaliy tadqiqot shaklida tekshirib ko'rildi. Natijaga ko'ra yuqoridagi omillarning nazariyasi amaliyotga mos keladi. Kelajakda ushbu kichik tadqiqotning davomi sifatida yana ayrim hissiy va ekonomik omillarni tahlil qilish foydadan xoli bo'lmaydi.